

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

### SUG'ORILADIGAN YERLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASH VA YUQORI HOSIL OLISH

*Bobojonov Nurimon Shaxriyor o'g'li*

*"TIQXMMI" MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, talabasi*  
[nurimonbobojonov@gmail.com](mailto:nurimonbobojonov@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mustaqil O'zbekiston Respublikasi intensiv rivojlanish pallasida yerlarning meliorativ holatini yaxshilash muammolari kundan kunga ortib bormoqda. Hozirda tuproqshunoslik, agrokimyo, geodeziya va kartografiya sohalarida malakali kadrlar tayyorlash borasidagi dolzarb vazifalardan ko'zlangan asosiy maqsad suv resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, unumdorligini oshirish, salbiy jarayonlarning oldini olish hamda oqibatlarini bartaraf etishning ilmiy asoslangan chora – tadbirlari va texnologiyalarini amaliyotga joriy etishdir.

**Kalit so'zlar:** Texnologiya, innovatsiya, irrigatsiya, melioratsiya, modernizatsiya, konsepsiya, kollektor, drenaj, obyekt.

**Abstract:** During the period of intensive development of the independent Republic of Uzbekistan, the problems of land reclamation are increasing day by day. Currently, the main goal of the urgent tasks of training qualified personnel in the fields of soil science, agrochemistry, geodesy and cartography is to use water resources rationally and economically, to improve the reclamation of irrigated lands, to increase their productivity, to prevent negative processes and to eliminate their consequences. - implementation of activities and technologies.

**Key words:** Technology, innovation, irrigation, reclamation, modernization, concept, collector, drainage, object.

**Аннотация:** В период интенсивного развития независимой Республики Узбекистан проблемы мелиорации земель обостряются с каждым днем. В настоящее время основной целью актуальных задач подготовки квалифицированных кадров в области почвоведения, агрохимии, геодезии и картографии является рациональное и экономное использование водных ресурсов, улучшение мелиорации орошаемых земель, повышение их продуктивности, предотвращение негативных последствий. процессы и устранение их последствий - внедрение мероприятий и технологий.

**Ключевые слова:** Технология, инновация, ирригация, мелиорация, модернизация, концепция, коллектор, дренаж, объект.

**Kirish.** Respublikamizda so'nggi yillarda barcha sohalar kabi suv xo'jaligi sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamizda suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Asosiy qism.** Bugungi kunda Respublikamizda jami sug'oriladigan yerlarning maydoni 4,3 mln gektar ushbu yerlar klaster va fermer xo'jaliklarga birlashtirilgan. Ularning faoliyatini tahlil qilish orqali sug'oriladigan yerlardan foydalanish samadorligiga atroflicha baho berish imkoniyati mavjud. Sug'oriladigan yer maydonlaridan to'g'ri va samarali foydalanish tez suratlarda bilan o'sib borayotgan Respublika aholisining oziq – ovqat mahsulotlariga va sanoatning xomashyoga bo'lgan talabini qondirish imkonini beradi.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar tufayli qishloq mulkdorlarining manfaatlarini ta‘minlash, ekin maydonlarining unumdorligini oshirish, yerdan to‘g‘ri foydalanish, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish kabi muhim yo‘nalishlarda salmoqli natijalarga erishilmoqda. Ayniqsa, soha taraqqiyotini kafolatlashga qaratilgan tashkiliy – huquqiy bazaning takomillashuvi qishloq xo‘jaligi faoliyatida yutuqlarning negizi hisoblanmoqda. Shuningdek agrar sektorni modernizatsiyalash, aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talabini qondirish borasidagi chora – tadbirlarni amalga oshirish, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va buning uchun ayni yo‘nalishdagi qonun hujjatlari ijrosi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ma‘lumki mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi sohasini yanada barqaror rivojlantirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu tariqa qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini ko‘paytirish uchun zarur shart – sharoitlarni yaratish maqsadida, “Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi farmon qabul qilingan edi. Unga ko‘ra, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini tubdan yaxshilash uchun quyidagi eng muhim vazifalar belgilangan:

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturlarini shakllantirish va uni amalga oshirishga yondashuvlarni tubdan o‘zgartirish;

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha ishlarni moliyalashtirishning ishonchli mexanizmini ta‘minlash.

Ushbu tadbirlarni samarali va to‘laqonli amalga oshirishni ta‘minlash uchun Respublikamizda bir qator yangi tizimlar joriy etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 – yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasida “Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun umumiy uzunligi 142,9 ming km, shundan 106,2 ming km ochiq va 36,7 ming km yopiq gorizontol kollektor – drenaj tarmog‘i, shuningdek 172 ta meliorativ nasos stansiyasi, 3897 ta vertikal drenaj quduq ishlatilayotganligi keltirilgan.

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash borasida 2022 – yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida ma‘lumot beradigan bo‘lsak, Respublikamizda 504,7 km ochiq kollektor tarmoqlari, 264,4 km yopiq gorizontol drenaj tarmoqlari, 95 ta vertikal drenaj quduqlari, 16 ta gidrotexnik inshootlarda qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirildi, shuningdek, 15 455 km kollektor – drenaj tarmoqlari, 136 ta vertikal drenaj quduqlar, 2 274 ta kuzatuv quduqlari va 1173 ta gidrotexnik inshootlarda ta‘mirlash – tiklash ishlari bajarildi.

Meliorativ tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 294,5 ming gektar maydonning meliorativ holati yaxshilandi. Shuningdek, sug‘oriladigan yer maydonlarida sho‘rlangan yer maydonlarini 1 891,9 ming gektargacha kamaytirish, kuchli va o‘rta sho‘rlangan sug‘oriladigan yer maydonlarini 548 ming gektargacha kamaytirish, yer osti suv sathi muammoli holatda (0 – 2 m) bo‘lgan yer maydonlarini 924,2 ming gektargacha kamaytirishga erishish rejalashtirilgan. 133,7 ming gektardan ziyod yerlar qayta foydalanishga kiritilib, qo‘shimcha qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hamda yangi ish o‘rinlarini yaratilishga erishildi.

Respublikamiz bo‘yicha 2022 – yilning sentabr oyida yer osti sizot suvlarining o‘rtacha joylashish sathi 0 dan 2 metrgacha bo‘lgan maydonlar 820,5 ming gektarni tashkil qilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 41,4 ming gektarga kamaygan.

Respublikamizda 2022 – yil boshidan sug‘orishga 32,8 mlrd.m<sup>3</sup> suv olingan bo‘lib, sug‘oriladigan yerlarga jami 26 ming tonna tuzlar kirib kelgan bo‘lsa kollektor – drenaj tarmoqlari orqali 14,9 mlrd.metr<sup>3</sup> kub suv bilan 27,7 ming tonna tuzlar tashqariga chiqib ketgan.

O‘tgan 2023 – yil davomida hududlardan olingan ma‘lumotlarga asosan Respublikamiz bo‘yicha jami 53,3 ming gektar yer maydonlari qishloq xo‘jaligida foydalanishga kiritilgan.

Keyingi yillarda kuzatilgan suv tanqisligi, yerlarning meliorativ holatining yomonligi va boshqa tashkiliy chora – tadbirlar o‘z vaqtida ko‘rilmaganligi bois 560 ming gektar sug‘oriladigan yer maydonining suv ta‘minoti darajasi pastligicha qolmoqda, jami 298,5 ming gektar sug‘oriladigan yer maydoni esa foydalanishdan chiqib ketgan.

14,5 ming km kollektor – drenaj tarmoqlari, 93 ta meliorativ nasos stansiya va 1 530 ta vertikal drenaj qudug‘ini rekonstruksiya qilish va yangidan qurishni talab etmoqda.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda suvdan foydalanish koeffitsiyentini yanada oshirishda irrigatsiya tarmoqlaridagi yo‘qotiladigan suv miqdorini kamaytirish, buning uchun esa sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini rekonstruksiya qilish va ta‘mirlash, tiklash hamda suv tejoychi texnologiyalarni keng qo‘llash dolzarb masala hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 10 - iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030 - yillarga mo‘ljallangan Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 6024 – sonli farmoni. Toshkent, 2020.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” 01.03.2022 – yildagi PQ-144-sonli qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv xo‘jaligini mexanizatsiyalash bo‘limi ma‘lumotlari. 2023 – yil.

4. Bafoyevich.A.S., Legal basis of farmers activity in Uzbekistan and analysis of the stage of its development. P: 112–114.

5. Internet saytlari.